



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Abdulla Qahhorning “San’atkor” hikoyasi: san’at, til va insoniylik talqini Nargiza Ro’ziyeva

Termiz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Jo‘ranazarova Nigora Qurbonboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Qahhorning “San’atkor” hikoyasining asosiy g‘oyalari, tahlili hamda adabiy-madaniy konteksti bo‘yicha kengroq qarashni taklif qiladi. Unda san’atkor shaxsining ruhiy kechinmalari, jamiyat bilan munosabati hamda til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik yoritilgan.

Muallif san’atkor obrazini oddiy insoniy kamchiliklar bilan birga tasvirlab, san’atning mohiyatini – xalq ruhini ifoda etish, go‘zallik va nafosatni targ‘ib qilish jarayoni sifatida talqin qiladi.

Kalit so‘z: Abdulla Qahhor, “San’atkor” hikoyasi, san’at, til, madaniyat, satira, badiiy tahlil, xalq va ijodkor munosabati.

Annotation: This scholarly-analytical article examines Abdulla Qahhor’s short story “San’atkor” from a literary and cultural perspective. The study explores the artist’s inner world, their relationship with society, and the intricate connection between language and culture. The author portrays the artist realistically, highlighting human flaws while interpreting the essence of art as a force that expresses the spirit of the people, and promotes beauty and morality.

Key word: Abdulla Qahhor, “San’atkor”, art language, culture, satire, literary analysis, relationship between the people and the creator.

O‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri — Abdulla Qahhor inson ruhiyatini, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni va madaniy tafovutlarni nasriy badiiy tahlil orqali ochib bergan yozuvchidir. Uning ijodida satira, kulgi, achchiq haqiqat va samimiyat uyg‘unlikda yashaydi. Shunday asarlardan biri — “San’atkor” hikoyasi bo‘lib, unda muallif san’atkor shaxsining ijtimoiy o‘rni, tildagi muammolar, madaniyat va xalq orasidagi tafovutni teran yoritadi.

Hikoya sahnada kuylayotgan san’atkor obrazi bilan boshlanadi. U o‘ziga xos ovoz sohibi, iste’dodli, ammo oddiy hayotda soddadil inson sifatida tasvirlanadi. Tanaffus vaqtida tomoshabinlar orasidagi traktorchi san’atkorning talaffuzidagi xatolarini tanqid qiladi; ayrim so‘zlarni to‘g‘ri aytolmayotgani, “bo’sa” o‘rniga “bo’lsa” deyishi, yoki tildagi nozikliklarni e’tiborsiz qoldirishi haqida gapiradi. Bu oddiy tanqid san’atkor qalbida og‘ir iz qoldiradi. Uyga qaytgach, u o‘zini oqlashga o‘zini “madaniyatli” deb isbotlashga urinadi, ammo xizmatchisi bilan suhbatlari chog‘ida o‘zi ham ko‘plab til xatolariga yo‘l qo‘yadi. Oxir-oqibat u charchagan holatda uxlab qoladi, lekin tushida ham o’sha “til” masalasi uni tinch qo‘ymaydi. Shu tariqa Qahhor kichik



bir voqea orqali katta ijtimoiy masalani ochib beradi bu san'at va madaniyat o'rtasidagi uzilishdir.

Til va madaniyat masalasi "San'atkor" hikoyasining asosiy g'oyalaridan biri tilga e'tibor masalasi. Abdulla Qahhor o'z davrida o'zbek tilining tozaligi, so'zlashuv madaniyati va adabiy norma muammolarini ko'p bor ko'targan.

Hikoyada san'atkorning "bo'sa", "pojarni", "gimnastika" kabi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishi orqali yozuvchi san'atkorlarning tilga befarqligini tanqid qiladi. Muallif bu orqali san'atkorning faqat sahnada emas, balki so'zda, tilda, madaniyatda ham namunali bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Chunki san'at tildan tug'iladi - agar til buzilsa, san'atning o'zi ham zaiflashadi. Til xalqning ruhiy qiyofasi, madaniyatning poydevoridir. Qahhor bu fikrni hikoyaning har bir sahnasida, dialoglar orqali ifodalaydi. Traktorchi va san'atkor o'rtasidagi kichik tortishuv aslida xalq va san'at o'rtasidagi madaniy tafovut ramzidir. Satira va kulgi orqali haqiqat. Qahhorning san'ati kulgidan haqiqat yashiringan san'atidir. "San'atkor"da ham u yumor va satirani mohirona qo'llaydi. San'atkorning "xizmatchiga til o'rgatishi", "uyida o'zini oqlashi" yoki "tushida ham xatolarni eshitishi" sahnalari kulgili tuyuladi, ammo bu kulgi ichida chuqur achinish bor. Abdulla Qahhor o'ziga xos sodda, lo'nda, ammo ma'nodor til bilan yozadi. Hikoyadagi diplomlar hayotiy, tabiiy, xalqona ohangda berilgan. Bu uslub o'quvchini bevosita voqea ichiga olib kiradi. Abdulla Qahhorning, "San'atkor" hikoyasi o'zbek adabiyotida til, madaniyat va san'at o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiluvchi noyob asarlardan biridir. Muallif san'atkor obrazida xalq va ijodkor orasidagi ijtimoiy - madaniy masofani ko'rsatadi. Hikoya bugun ham dolzarb: tilni toza saqlash, san'atda mas'uliyatni his qilish, madaniyatni qadrlash har bir ijodkorning, har bir o'zbekning burchidir. Qahhor bizni aynan shungatilga, san'atga va insoniylikka sadoqatga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Qahhor . "Asarlar. Besh jildlik. Birinchi jild" G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti: **Toshkent-2020**
2. Gulliyeva Sevara. Abdulla Qahhor hikoyalarining ijtimoiy mohiyati. - **Toshkent 2019**
3. Wikipedia.uz "Abdulla Qahhor haqida" maqola -2003
4. <https://www.ziyouz.com>